

## DORI VOSITALARINING REKLAMASI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISINING O'ZINI O'ZI SAQLASH XULQ-ATVORINI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA

N.J. Sulaymonova  
G.U. Azlyarova

Toshkent farmasevtika instituti, Toshkent sh., O'zbekiston  
niginasulaymonova2003@gmail.com tel: +998(91)440-21-77  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.12542804>

**Kirish.** Biz birinchi o'rinda tibbiyot vakili sifatida emas, balki O'zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida dori vositalari reklamasida, ularni qo'llashdagi qoidalar haqida chuqurroq ma'lumotlarga ega bo'lishimiz kerak. Bundan asosiy maqsad dori vositalarini qo'llash madaniyati haqidagi tushunchalarni aholimizga yetkazib berish hisoblanadi. Hozirgi kunda reklama ham bir faoliyat turi sifatida kundan-kunga rivojlanib borayapti. Reklama yordamida aholiga nafaqat dori haqidagi ma'lumotlarni berishimiz mumkin, balki aholiga dori vositasi qanday saqlash, qo'llash hamda qabul qilish haqida ko'nikmalarni ham shakllantirishimiz mumkin. O'z-o'zini saqlash haqida xulq-atvor shakllantirayotganimizda O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi qonunlarini chetlab o'tmasligimiz zarur. Tele va radio orqali berilayotgan ko'rsatuv va eshittirishlarni dori-darmon va turli davolash tadbirlari reklamasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun bu tizim faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish juda muhim va katta mas'uliyat hisoblanadi. U xoh oddiy shamollash bo'lsin, xoh jiddiy xastalik bo'lsin, reklama orqali uni juda oson davolash targ'ib qilinadi.

**Dolzarbli.** Axolining dori vositalari va tibbiy buyumlar to'g'risidagi savodxonligini oshirishda va farmatsevtika bozoridagi yangi farmatsevtik vositalar bilan tanishtirish va ular to'g'risida to'g'ri va aniq bo'lgan ma'lumotlar berishni kafolatlash. Aholini sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash. Reklamaning maqsadlari bu yangi dori vositasini joriy etish, yangi terapevtik ta'sir yoki yangi dozalash shakli haqida ma'lumotlarni beradi, dori haqidagi ko'nikma uyg'otish.

**Usul va uslublari.** O'RQ-776-son 07.06.2022 yildagi "Reklama to'g'risida" gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.04.2017 yildagi 185-son "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi qaror, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 213-son 23.02.2018 yildagi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 12.01.2024, O'zbekiston Respublikasi PQ 26.10.2022

O'zbekiston Respublikasi "Reklama to'g'risida"gi Qonun va Reklamani joylashtirish to'g'risidagi Nizomda (ro'yxat raqami 1024, 2001-yil 6-aprel) dori vositalari reklamasiga qo'yilgan bir qator talablar belgilangan.

**Xulosa.** Qonunlar va farmonlarni aniq, tushunarli qilib aholiga tushuntirish aholining dori vositalardan to'g'ri foydalanish haqida, ularni qanday sharoitda saqlash uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tibbiy savodxonlikni oshirish aholi orasida dorilardan noto'g'ri foydalanish, noto'g'ri saqlash natijasida yuzaga keladigan noxush holatlarni oldini olishga qaratilgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak reklama har doim ham optimal yechim emas. Chunki juda jiddiy bo'lgan xastaliklarni reklama qilinayotgan dori vositalari bilan davolash bo'lmaydi bu aks holatlarda o'limga yoki yanada og'irroq kasalliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun shifokor ko'rsatmasi juda katta ahamiyatga ega bo'lgan omil.

**Foydalanilgan adbiyotlar:**

1. O'RQ-776-son 07.06.2022 yil, "Reklama to'g'risida" gi qonun <https://lex.uz/uz/docs/-6052631> .
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.04.2017 yildagi 185-son "DORI VOSITALARI VA FARMATSEVIKA FAOLIYATI TO'G'RISIDA"gi qaror <https://lex.uz/ru/docs/-3155768>
3. O'zbekiston Respublikasi "Reklama to'g'risida"gi Qonun va Reklamani joylashtirish to'g'risidagi Nizomda (ro'yxat raqami 1024, 2001-yil 6-aprel)